

**BUXORO JADIDLARIGA SOVET DAVRIDA BO‘LGAN
MUNOSABATLAR VA TARIXIY BAHOLAR****Do‘smurodov Shahzod***Oriental universiteti magistranti***Annotatsiya**

Ushbu maqolada XX asr boshlarida Buxoro amirligida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining siyosiy faoliyati tahlil etiladi. Maqolada Buxoro jadidlarining tashkiliy tuzilmasi, dasturiy talablari, islohotchilik g‘oyalari va ular amalga oshirgan siyosiy kurash usullari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot asosida muxtasar xulosa chiqarilib, jadidlarning O‘rta Osiyo milliy-ozodlik harakatidagi o‘rni va tarixiy ahamiyati baholanadi.

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, Buxoro amirligisi, siyosiy islohotlar, milliy harakat, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, XX asr boshi.*

Kirish

Sovet davrida 1920-yillarning oxiri 1980-yillargacha bo‘lgan davrda Buxoro jadidchilik harakati va uning yetakchilari haqidagi bahslar kommunistik mafkura va sinfiy kurash nazariyasiga asoslangan holda olib borilgan. Jadidlar dastlab 1920-1924-yillarda, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida inqilobiy kuch sifatida qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsada, 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, xususan Stalin davrida, ular “burjua-millatchi”, “panislomist”, “pan-turkist” va “sovetga qarshi” elementlar sifatida qoralangan. Bu bahslar qatag‘onlar, taqiqlar va tarixiy yozuvlarni qayta talqin qilish orqali amalga oshirilgan. Dastlabki bahslar va ijobiy baho 1920-1927-yillar oralig‘iga nazar tashlaydigan bo‘lsak. 1920-yilda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilishi) vaqtida jadidlardan Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Abdulvohid Burhonov va boshqalar hukumat tarkibiga kirib, ma‘rifiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etgan. Jamiyatda jadidlarni roli oshib borgan. Lekin bu ijobiy qarshilar tezda chappasiga aylanib keti. Xususan Sadriddin Ayniy kabi shaxslarning xotiralari va 1922-yilda nashr qilingan “Buxoro jallodlari” amirlik zulmini ochib bergan va inqilobni ijobiy baholandi. Jadidchilik “feodal-amirlik tuzumiga qarshi kurash” sifatida tan olindi, ammo tez orada bu qarash o‘zgargan. 1920-1927-yillar Buxoro jadidlarining taqdiri uchun murakkab va keskin o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu yillarda Sovet hokimiyati dastlab jadidlarni yosh buxoroliklar deb ham atalgan islohotchi ziyolilar inqilobiy ittifoqchi sifatida ko‘rgan bo‘lsa, keyinroq ularni millatchilik va burjua ideologiyasi vakillari deb hisoblab, bosqichma-bosqich taqib qilishga o‘tgan. Bu davr Rossiyadagi fuqarolar urushi va Markaziy Osiyoning sovetlashtirilishi fonida kechdi. 1920-yil avgust-sentyabr oylarida Buxoro amirligi ag‘darilganida jadidlarning so‘l qanoti vakillari Fayzulla Xo‘jayev,

Abdulqodir Muhitdinov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev kabi rahbarlar Qizil armiya bilan ittifoq tuzib, amir Said Olimxonni Buxorodan quvib chiqargan edi.

Bu ittifoq jadidlar uchun majburiy va strategik jihatdan muhim edi. Ular amirlik tuzumini yo'q qilishni maqsad qilgan, Sovetlar esa ularni mahalliy "burjua inqilobchilari" sifatida ishlatgan. Lenin siyosati doirasida, Bolsheviklar jadidlarni dastlab qo'llab-quvvatlagan, chunki ular ijtimoiy va ta'lim islohotlarini amalga oshirishda yordam bergan masalan, yangi usul maktablari, ayollar huquqlari va soliq tizimi o'zgarishlari kabi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi 1920-yil oktyabrda e'lon qilinganida, hukumatning asosiy rahbarlari jadidlar edi. Fayzulla Xo'jayev Xalq Nozirlar Sho'rosi hukumat raisi bo'lgan, Abdulqodir Muhitdinov esa Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi rahbari. Jadidlar Sovet hokimiyatining yordami bilan madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarni boshlagan. Bosmaxonalar ochilgan, gazeta va kitoblar chop etilgan, ta'limda lotin alifbosi joriy etilishiga tayyorgarlik ko'rilgan, hamma narsa va'da qilinganday ketayotgandi. Toki Sovetlar tomonidan mamlakatda hokimiyat to'la bo'ysuntirilib o'z qo'llariga o'tgancha. Sovetlar jadidlarni salbiy kuch sifatida ko'rdi va ularni Buxoro kommunistik partiyasi (BKP) bilan hamkorlikka jalb qilgan. Ammo munosabatlar dastlabdan ziddiyatli edi. Jadidlar milliy mustaqillik va islomiy islohotlarni xohlagan, Bolsheviklar esa sinfiy kurash va ateizmni targ'ib qilgan. Masalan, yosh buxoroliklar va BKP o'rtasida shaxsiy va siyosiy nizolar bo'lgan. 1921-yildan boshlab Sovet siyosati o'zgarib boshlagan. Basmachilik harakati amir tarafdorlari va mahalliy qarshilik harakati kuchaygach, bolsheviklar jadidlarni bu harakatga qarshi kurashda ishlatilgan, ammo ularning milliy g'oyalari shubha uyg'otgan. Sovetlar jadidlarni "burjua millatchilari" deb ko'rib, ularni bosqichma-bosqich hokimiyatdan chetlatishga o'tgan. Qo'rboshilarga qarshi kurashda jadidlarning ba'zilar masalan, Fayzulla Xo'jayev faol ishtirok etgan va bu orqali Sovetlarning ishonchini saqlagan. Ammo Qo'rboshilar jadidlarni "ruslarga sotilgan" deb ko'rgan va ularga qarshi kurashgan. Masalan, qo'rboshilar rahbarlaridan biri Ibrohimbek jadidlarni asosiy dushman deb hisoblagan. Shu o'rinda aytish lozimki qo'rboshilar bo'ysunmaslik keskin kurash yo'lini tanlagan bo'lsa ayrim jadidlar diplomatik yo'l orqali huriyatga intilgan maqsad bir, lekin yo'nalish turli xilligi ularni bir biriga nisbatan adavot uyg'onishiga sabab bo'lgan. 1924-yil oktyabrda BXSRS tugatilgan va uning hududi O'zbekiston SSR, Tojikiston ASSR va Turkmaniston SSRga bo'lingan. Bu jarayonda jadidlarning ko'pchiligi yangi respublikalarda lavozimlarga o'tkazilgan, ammo Sovet markaziy hokimiyati ularni nazorat ostiga olgan. Jadidlarning milliy birlik g'oyalari (masalan, "Turkiston" yagona millati) Sovet siyosatiga zid kelgan va ular "pan-turkizm"da ayblana boshlagan. Bu davrda jadidlarga munosabat ikki tomonlama bo'lgan, ular hali ham ta'lim va madaniyat sohasida faol bo'lgan masalan, Sadridin Ayniy kabi shaxslar adabiyot va filologiyada ishlagan, ammo Sovetlar ularni "eski ziyolilar" deb ko'rib, yangi kommunistik kadrlar bilan almashtira boshlagan. 1925-yildan boshlab Sovet siyosati keskinlashgan. Stalin davriga o'tish bilan jadidlarning ko'pchiligi "millatchilik"

da ayblangan. Bu yillarda ularning faoliyati cheklangan, gazetolari yopilgan va rahbarlari ta'qib qilingan.

1926-1927 yillardagi jadidlarga qarshi qaratilgan tergov kampaniyalari. Sovetlar jadidlarni "inqilobga xiyonat"da ayblab, ommaviy sud jarayonlarini boshlagan. Masalan, 1927-yilda O'zbekiston SSRda jadid rahbarlariga qarshi "millatchilar guruhi" ishi ko'rilgan. Ko'pchilik qamoqqa olingan yoki surgun qilingan. Fayzulla Xo'jayev hali rahbarlikda qolgan bo'lsada, uning atrofidagi ko'plab jadidlar masalan, Abdurauf Fitrat, Cho'lponlar ta'qibga uchragan. Jadidlarning islomiy islohot g'oyalari Sovet ateizmiga zid kelgan. 1927-yilda "Hujum" kampaniyasi (ayollar ozodligi) boshlanganida, jadidlar bu jarayonda ishlatilgan, ammo ularning diniy ko'rinishlari masalan, islom madaniyati ta'qib qilingan. Bu davrda ko'plab jadidlar yashirin faoliyatga o'tgan yoki Sovet tuzumiga moslashishga majbur bo'lgan. Sovet davrida jadidlar "burjua inqilobchilari" deb baholangan, ammo mustaqillikdan keyin O'zbekiston va Tojikiston tarixshunosligida ular milliy qahramonlar sifatida ko'riladi. Ularning Sovetlar bilan ittifoqi "majburiy ittifoq" deb talqin qilinadi, chunki ular amirlikka qarshi kurashda Sovet yordamiga muhtoj bo'lgan. Bu davr Buxoro jadidlarining umidlari va fojiasi ramzi sifatda qoldi. Ular inqilob orqali islohotlarga erishmoqchi bo'lgan, ammo yangi tuzum ularni ham yo'q qilgan. Stalin davridagi qattiq qoralash va qatag'onlar 1928-1953-yillar oralig'ini olgan bu qonli davr sifatida tarixdan o'rin egallaydi. Bu davr Stalin terori davri sifatida ham tarixda qolgan. O'zbekiston tarixining qora eng qora kunlari sifatida tilga olnadigan, bu davr odamlari yuragida qorquv ertangi kunga ishonchsizlik kuchaygan davr sifatida tarixga qonli harf bilan yozildi. Sovet Ittifoqida Iosif Stalin rahbarligidagi totalitar davrni qamrab olgan, bu davr kollektivlashtirish, industrializatsiya, Buyuk terror davri 1936-1938-yillarni o'z ichiga olgan davr, Ikkinchi jahon urushi 1941-1945-yillar va keyingi taqiblar bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekiston SSR va Tojikiston ASSRda, jadidlar yosh buxoroliklar musulmon ziyolilarining islohotchi harakatining taqdiri keskin o'zgargan davr. Jadidlar 1920-yillarda Sovet hokimiyatiga yordam bergan bo'lsada, Stalin davrida ular "burjua millatchilari", "pan-turkizm tarafdorlari" va "kontrrevolyutsionerlar" deb e'lon qilinib, ommaviy ta'qib va qatlga duchor bo'lgan. Bu munosabat Sovet siyosatining milliy masalalarga nisbatan o'zgarishi dastlabki "korenizatsiya" (mahalliy kadrlar rivoji)dan qatag'onga o'tish bilan bog'liq edi. Dastlabki o'zgarishlar va taqiblar boshlanishi 1928-1932 yillarni o'z ichiga oladi. Stalinning birinchi besh yillik rejasi 1928-1932-yillarda Sovet hokimiyati Markaziy Osiyoda islom va milliy madaniyatni bostirishga kirishdi. Jadidlar, 1920-yillarda ta'lim, madaniyat va ayollar huquqlari islohotlarida faol bo'lgan bo'lsada, endi shubha ostiga olindi. Ularning milliy birlik g'oyalari (masalan, "Turkiston" yagona millati) Sovet markaziy hokimiyatining "sinfiy kurash" va ateizm siyosatiga zid keldi. Shu va boshqa sabablar o'rtaga tashlanib mahalliy ziyoliy qatlamga nisbatan terror harakati keng miqyosda boshlab yuborildi.

Mahaliylashtirish siyosatining o'zgarishi davri 1920-yillarda jadidlar mahalliy hokimiyatda lavozimlarga o'tkazilgan edi masalan, yuqorida takidlanganidek Fayzulla Xo'jayev O'zbekiston SSR hukumati rahbari sifatida tayinlangan edi. Ammo 1928-yildan boshlab, Sovetlar rus byurokratlarini ko'paytirib, mahalliy ziyolilarni "millatchilik"da ayblashga o'tgan. Farg'ona vodiysi va boshqa hududlarda islomni bostirish kampaniyalari kuchaytirilgan, masjidlar yopilgan, ruhoniylar ta'qib qilingan va jadidlarning islomiy islohot g'oyalari "feodalizm qoldiqlari" deb baholangan. Mahalliy ziyoliy qatlamni jismonan yo'q qilishga o'tilgan.

Tarixda hujum kampaniyasi nomini olgan davr 1927-1935-yillar oralig'ini o'z ichiga olgan ma'shum davr sifatida tarixdan o'rin egallagan. Ayollar ozodligi nomi bilan o'tkazilgan bu kampaniya jadidlarning ayollar ta'limi haqidagi g'oyalarini ishlatgan, ammo ularni Sovet tuzumiga moslashtirgan. Jadidlar bu jarayonda ishtirok etgan masalan, Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho'lponlar bu harakat faol qatnashgan, lekin ularning mustaqil fikrlari sovetlarda shubha uyg'otgan. Natijada, jadidlar orasida ommaviy hibsga olishlar boshlangan. Stalinning Buyuk terrori 1936-1938-yillarda jadidlarga nisbatan munosabatning cho'qqisini belgilagan. Bu davrda Sovet hokimiyati "xalq dushmanlari"ni yo'q qilish maqsadida millionlab odamlarni qatl etgan. Jadidlar "pan-turkizm", "millatchilik" va "josuslik"da ayblanib, ommaviy sud jarayonlari va qatlg hukm qilingan. Bu taqiqlar Markaziy Osiyoda milliy ziyolilar sinfini deyarli yo'q qilgan. 1937-1938-yillarda O'zbekiston va Tojikistonda jadid rahbarlarining aksariyati qamoqqa olingan. Masalan O'zbekiston SSR rahbari Fayzulla Xo'jayev 1937-yil 9-iyulda Moskvaga chaqirildi. Moskva aeroportida uni NKVD xodimlari kutib oldi. Bu safar bu «chaqiruv» maxfiy hibsga olish edi. Xo'jayev Moskvadagi NKVD qamoqxonasiga Lubyankaga joylashtirildi. Unga quyidagi og'ir ayblovlar qo'yildi: «O'ng-trotskiychi blok» faoliyatiga qo'shilganlik; «Milliy ittihad» tashkilotiga rahbarlik qilganlik; bosmachilik harakatini qo'llab-quvvatlaganlik va qo'rboshilar bilan yashirin muloqotlar; Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa ziyolilarga himoyachilik qilganlik. Tergov bir necha oyga cho'zildi. Xo'jayev jismoniy va ruhiy qiynov ostiga olindi. NKVD tergovchilari «tan olish» olish uchun turli usullar qo'lladi: uxlatmaslik, uzoq soat so'roq qilish, sovuqda ushlab turish, yaqinlariga zarar yetkazish bilan tahdid qilish. Oxir-oqibat Xo'jayev bir qancha ayblovlarni «tan oldi», biroq barcha ayblovlarni oxiriga qadar rad etdi.

1938-yil fevral-mart oylarida Moskvada uchinchi jamoat jarayoni Buxarin-Rykov ishi o'tkazildi. Bu jarayon butun dunyo matbuotida keng yoritildi Stalin uni sovet tuzumiga «dushman»larni jamoatchilik oldida fosh qilish uchun ishlatdi. Xo'jayev ham bu jarayonda ayblanuvchi sifatida qatnashdi Buxarin va Rykov bilan bir safda. Jarayon davomida u oldindan tayyorlangan matnni o'qidi chunki aks holda NKVD oilasiga zarar yetkazishi mumkin edi. 1938-yil 15-martda Fayzulla Xo'jayev Moskva yaqinidagi Kommunarka poligonida otib tashlandi. U 41 yoshida hayotdan ko'z yumdi. Bu poligonda minglab Stalin qurbonlari maxfiy ravishda ko'milgan. Xo'jayevning

qabrining aniq joyi uzoq yillar noma'lum bo'lib qoldi. Oilasiga dastlab «10 yil lager» deb yolg'on xabar berildi. Yozuvchi va ziyoli Abdurauf Fitrat ham 1938-yilda Stalinning tarori qurboniga aylangan. Abdurauf Fitrat 1937-yil 24-aprelda Samarqandda O'zbekiston davlat universitetining Samarqand filialida professor sifatida ishlayotgan paytda qamoqqa olindi. Kechqurun soat to'qqizda NKVD xodimlari uning uyiga kirib, uni qamoqqa olib ketdi. Uydagi barcha qo'lyozmalar, kitoblar, shaxsiy hujjatlar musodara qilindi. Ularning o'nlab yillar davomida yaratilgan qo'lyozmalari ehtimol hali biror nashr ko'rmagan yangi asarlar bu musodara bilan abadiy yo'qoldi. Fitrat Toshkentga olib kelindi va NKVD ning mahalliy qamoqxonasiga joylashtirildi. Tergov bir necha oyga cho'zildi. Unga qo'yilgan ayblovlar Xo'jayevnikiga o'xshash edi: panturkizm, milliy burjua mafkurasini targ'ib qilish, «Milliy ittihad» tashkiloti bilan aloqalar. Fitrat tergov davomida turli qiynovlarga duch keldi. U yoshligidagi Istanbuldagi yillar, turk adabiyoti bilan tanishlik bularning barchasi endi ayblov sifatida ishlatildi. SSSR Oliy sudi harbiy hay'ati 1938-yil 4-oktyabrda Fitrat «ishi»ni Toshkentda ko'chma sessiyada ko'rib chiqdi. Sessiya bir necha soat davom etdi. Fitratga sud himoyachisi berilmadi, guvohlarni chaqirish huquqi yo'q edi, o'z taqdiri hal qilinayotganida erkin gapirish imkoni cheklangan edi. Shu kuni unga o'lim jazosi berildi va shu kuni ijro etildi. Fitrat 52 yoshida shahid bo'ldi. Qabrining joyi hozir ham aniqlanmagan.

Fitratning o'limidan so'ng uning barcha asarlari kutubxona va arxivlardan olib tashlandi, sotilishi va o'qitilishi taqiqlandi. Ilmiy tadqiqotlarda uning nomini tilga olish man etildi. Xotin va farzandlari «xalq dushmani oilasi» maqomiga tushirib, bir necha yil ta'qib ostida yashadi. Farzandlari ota haqida hatto do'stlariga ham gapirishdan qo'rqardi. Bu shaxslarning qatl etilishi jadid harakatining rahbarlarini yo'q qilgan. Jadidlarning tojik qismi masalan, Sadridin Ayniy ham ta'qibga uchragan, ammo Ayniy siyosatdan uzoqlashib, adabiyotda qolishi tirik qolishga sabab bo'lgan edi. Yana boshqa ko'plab jadidlar va mahalliy ziyolij qatlam qatil etilgan. Masalan, ulardan biri Abdulqodir Muhitdinov edi. U ham buyuk teror qurboniga aylangan edi. Ba'zi jadidlar qatl etilmagan, ammo Gulag lagerlariga yuborilgan yoki surgun qilingan. Bu taqiblar jadidlarning madaniy va siyosiy faoliyatini butunlay to'xtatgan. Jadidlarning kitoblari taqiqlangan, ularning nomi Sovet tarixshunosligidan butkul o'chirilgan. Qatag'on faqat qurbonlarning o'zlari bilan tugamadi. Ularning oilalari xotinlar, farzandlar, ota-onalar, aka-ukalar ham «xalq dushmani oilasi» maqomiga tushdi. Bu maqom ularga deyarli barcha huquqlarni yo'qotishni anglatardi. Xotinlarning ko'pchiligi qamoqqa olindi. Ba'zilar eridan ajralib ketishga majbur qilindi agar ular ajralib, eridan voz kechishlarini e'lon qilsalar, o'zlari qutulishi mumkin edi. Ko'plari bu taklifni qabul qilmadi va azobga duch keldi. Ba'zilar NKVD maxsus «xotinlar» lageri ALZhIR (Akmolinsk lageri xalq dushmanlari xotinlari uchun) ga yuborildi. Bu lagerda minglab «dushman xotinlari» og'ir sharoitda yashadi. Farzandlar eng og'ir ahvolda qoldi. Ota-onalardan ajralib, mehribonim uylariga joylashtirilgan bolalar ko'pincha «dushman bolalari» deb

tahqirlandi, maktab va keyinchalik universitetda kamsitildi. Ular «ota kim» degan savoldan qo'rqib, hech qachon haqiqatni aytolmasdi. Yillar o'tib, ba'zi farzandlar otanalarining haqiqiy taqdirini bilib olganda, bu yangilik ularga qo'shimcha jarohat bo'ldi.

Mol-mulk musodara qilindi. Uylar, kitoblar, qo'lyozmalar, shaxsiy buyumlar bularning barchasi davlat ixtiyoriga o'tdi. Kutubxonalar tarqatildi va ko'pincha yo'q qilindi. Qimmatli qo'lyozmalar balki hozir noma'lum asarlar ham ular orasida bor edi abadiy yo'qoldi. Bu madaniy yo'qotish ham shaxsiy yo'qotish kabi og'ir bo'ldi.

Urush davrida 1941-1945-yillarda taqiblar biroz yumshagan, ammo jadidlarga nisbatan munosabat o'zgarmagan. Qolgan jadidlar Sovet tuzumiga moslashishga majbur bo'lgan masalan ulardan biri Sadridin Aynidir undan urush propagandasida foydalanishgan.

Urushdan keyin 1945-1953-yillarda taqiblar qayta kuchaygan va bu holat Stalinning o'limigacha davom etgan, "millatchilik"ga qarshi kampaniyalar o'tkazilgan. 1953-yil yani Stalin o'limigacha jadidlarning nomi taqiqlangan bo'lib qolgan. Ularning merosi yashirin saqlangan, ammo ommaviy muhokama qilinshiga yo'l qo'yilmagan. Stalin davridagi taqiblar jadid harakatini butunlay yo'q qilgan minglab ziyolilar qatl etilgan, milliy madaniyat katta zarar ko'rgan. Bu butun Turkiston o'lkasining madaniy rivojiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatgan. Ta'lim va adabiyot Sovet ideologiyasiga bo'ysungan.

Jadidlarning ayollar huquqlari va ta'lim islohotlari Sovet tuzumi tomonidan o'zlashtirilgan, ammo ularning milliy mustaqillik g'oyalari ayovsiz tarzda bostirilgan. Sovet davrida jadidlar "burjua inqilobchilari" deb baholangan va ular haqidagi ma'lumotlar yashirilgan. Mustaqillikdan keyin O'zbekiston va Tojikistonda jadidlar milliy qahramonlar deb e'lon qilingan, ular haqida hujjatli filmlar va konferensiyalar o'tkazilmoqda. Masalan, Adeeb Khalid kabi tadqiqotchilar jadidlarni "musulmon modernizatorlari" deb ta'riflaydi va ularning Stalin qatag'onlaridagi taqdirini "milliy fojia" deb ko'radi.

Buxoro jadidlariga nisbatan qatag'on sabablarini tahlil qilishda bir necha yondashuv qo'llanilishi mumkin. Birinchi yondashuv strukturaviy: Stalin tuzumi milliy respublikalardagi har qanday mustaqil siyosiy kuchni yo'q qilishga urinardi. Jadidlar esa tabiiy ravishda bunday kuchni ifodalardi. Ular milliy til, madaniyat va manfaatlar uchun kurashgan kishilar sifatida markazlashgan sovet davlati uchun potentsial xavf manbai edi. Ikkinchi yondashuv shaxsiy: Stalinda jadidlarga, ayniqsa Xo'jayevga nisbatan shaxsiy adovat bor edi. Bu adovat 1922-yilgi bahsdan boshlab shakllangandi. Xo'jayevning Stalinga ochiqdan-ochiq qarshi chiqishi hatto birgina safar bo'lsa ham Stalin tomonidan hech qachon kechirimadi.

Uchinchi yondashuv mafkuraviy: jadidlar «milliy» edi, ya'ni ular o'z xalqining manfaatlarini sovet mafkurasidan ustun qo'yishga moyil edilar. Bu holat markazlashgan sovet davlati uchun maqbul emas edi. «Bir mamlakatda sotsializm» qurish uchun barcha respublikalar markazga to'liq bo'ysunishi kerak edi.

To'rtinchi yondashuv pragmatik: Stalin 1930-yillar oxirida yangi urushga tayyorgarlik ko'rmoqda edi va uning uchun turg'un, tamoman bo'ysunuvchi davlat boshqaruvi zarur edi. Mustaqil fikrlaydigan ziyolilar bu tizimga sig'masdi. Ularni yo'q qilish eng ishonchli yechim edi. Aslida bu to'rta omilning barchasi birgalikda ta'sir qildi. Nima bo'lganda ham, natija bir xil bo'ldi: Buxoro jadidlari butunlay yo'q qilindi. Bu tarix sahifasida davlat tomonidan amalga oshirilgan ommaviy jinoyat sifatida qoldi.

1950-1980-yillarda Buxoro jadidlariga bo'lgan munosabat. 1950-1980-yillar Sovet Ittifoqi davri bo'lib, bu davrda Buxoro jadidlari yosh buxoroliklarga bo'lgan munosabat asosan Sovet ideologiyasi doirasida shakllangan. Bu yillarda Stalin qatag'onlaridan keyingi "yumshash" tarixiy nuqtayi nazar bilan qaraganda Xurushchev davri, 1953-1964-yillar va keyin "stagnatsiya" Brejnev davri, 1964-1982-yillar sodir bo'lgan. Sovet tarixchilarining talqinida jadidlar ko'pincha "burjua millatchilari" yoki "kontrrevolyutsionerlar" deb baholangan, ammo mustaqillikdan keyingi O'zbekiston tarixshunosligida ular milliy qahramonlar sifatida qayta baholangan. Ularning nomlari oqlanib me'rosi o'rganilmoqda. Sovet Ittifoqi davrida, xususan 1950-1980-yillarda, jadidlarga bo'lgan munosabat rasmiy ideologiya doirasida qattiq nazorat qilingan. Stalin o'limidan keyin taqiblar yumshagan bo'lsada, jadidlar haqidagi salbiy baho asosan saqlanib qolgan. Xurushchev davri (1953-1964) yumshash va qisman qayta tiklash davri. Stalin qatag'onlarini qoralash jarayonida ko'plab ziyolilar, jumladan jadidlarning ba'zilari, qayta tiklangan qilingan. Masalan, Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon kabi jadid yozuvchilarning asarlari 1950-yillarning oxirida qayta chop etilgan va ularning nomi Sovet adabiyotiga qaytgan. Sovet tarixchilari jadidlarni "progressiv" kuch sifatida ko'rsatgan, ammo ularning milliy mustaqillik g'oyalari "xato" yoki "burjua millatchiligi" deb baholangan. Bu davrda jadidlarning ta'lim islohotlari (yangi usul maktablari) Sovet ta'lim tizimining "zamin"i sifatida talqin qilingan. Sovet kitoblarida jadidlar "mehnatkash xalqning g'alabasi"ga yordam bergan, ammo "sinfy kurash"dan chetda qolgan deb yozilgan. Brejnev davri 1964-1982-yillar jadidlarga bo'lgan munosabatlarda umuman ziyoli qatlamlarga nisbatan stagnatsiya va nazoratni kuchayishi davri sifatida qaraladi. Bu yillarda munosabat qayta keskinlashgan. Jadidlar haqidagi ma'lumotlar Sovet tarixshunosligida yashirilgan yoki "burjua millatchilari" deb baholangan. Masalan, Adeeb Khalidning tadqiqotlariga ko'ra, jadidlarning nomi Sovet kitoblaridan o'chirilgan, ularning milliy birlik g'oyalari "pan-turkizm" deb qoralangan.

O'zbekiston SSRda jadidlarning faoliyati "feodalizm qoldiqlari" bilan bog'langan va ularning islomiy islohotlari Sovet ateizmiga zid deb ko'rilgan. Bu davrda jadidlar haqidagi tadqiqotlar cheklangan bo'lib, faqat "Sovet inqilobiga yordam bergan" jihatlari yoritilgan. Masalan, Fayzulla Xo'jayev kabi jadid rahbarlari "millatchilikda ayblanib qatl etilgan" deb yozilgan, ammo ularning haqiqiy roli yashirilgan. Sovet talqinida jadidlarning Buxoro amirligiga qarshi kurashi "progressiv" deb baholangan, ammo ularning mustaqillik umidlari "xato" deb ko'rsatilgan. Bu munosabat Sovet Ittifoqining

milliy siyosati bilan bog'liq bo'lib, jadidlar "Sovet modernizatsiyasi"ning oldingi bosqichi sifatida ishlatilgan, lekin ularning mustaqil g'oyalari bostirilgan. Mustaqillikdan keyin 1991-yildan O'zbekiston tarixshunosligida jadidlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgargan. Ular milliy uyg'onish va mustaqillik ramzi sifatida qayta baholangan. Bu talqin asosan post-sovet O'zbekiston va Tojikiston tarixchilari tomonidan rivojlantirilgan.

Milliy qahramonlar sifatida nomlari qayta tiklanish ishlari amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yilda jadidlarni "XX asrda Uchinchi Renessansni amalga oshirishi mumkin bo'lgan buyuk mutafakkirlar" deb atagan. Post-sovet tarixchilar jadidlarni "musulmon modernizatorlari" deb ta'riflaydi, ularning ta'lim, madaniyat va milliy birlik g'oyalarini milliy mustaqillikning asosi deb ko'radi.

Masalan, Adeeb Khalidning "The Politics of Muslim Cultural Reform" kitobida jadidlar Sovet repressiyalari qurbonlari sifatida ko'rsatilgan, ammo ularning merosi "milliy fojia" deb talqin qilinadi. Sovet davridagi munosabatlarga tanqidlar. Post-sovet o'zbek tarixchilari masalan, S.S. Shihaliyev 1950-1980-yillardagi sovet talqinini "ideologik buzilish" deb baholaydi.

Ular jadidlarni "milliy uyg'onish"ning asoschilari deb ko'radi, ularning Sovetlar bilan ittifoqini "majburiy kompromiss" deb talqin qiladi. Masalan, Marlene Laruelle ning tadqiqotlarida jadidlarning nomi Sovet davrida yashirilgani, ammo mustaqillikdan keyin ular milliy ramzga aylangani ta'kidlanadi. O'zbekiston va Tojikistonda jadidlar haqida konferensiyalar, filmlar va kitoblar chop etilmoqda. Post-sovet talqinida jadidlarning Buxoro amirligiga qarshi kurashi "milliy ozodlik kurashi" deb baholangan, ularning Sovet qatag'onlari qurboni bo'lishi esa "milliy fojia" sifatida ko'riladi. Bu talqin O'zbekistonning milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. 1950-1980-yillarda Sovet munosabati jadidlarning merosini yashirgan bo'lsada, post-sovet O'zbekistonda ular milliy qahramonlarga aylangan. Sovet talqini ideologik, salbiy bo'lgan, post-sovet talqini esa ijobiy va milliy hisoblanadi. Bu evolyutsiya O'zbekistonning mustaqillik davridagi madaniy siyosatini aks ettiradi, jadidlar ta'lim va milliy birlik ramzi sifatida ishlatilmoqda.

Xulosa

Buxoro jadidlarining siyosiy faoliyati murakkab va ko'p qirrali tarixiy hodisa bo'lib, u O'rta Osiyo tarixida muhim sahifa ochdi. Dastlab ta'lim islohotlarini targ'ib qilgan bu harakat vaqt o'tishi bilan chuqur siyosiy mazmun kasb etdi va amirlik hokimiyatiga muxolifat sifatida maydonga chiqdi. Jadidlar siyosiy kurashning turli usullaridan — matbuotdan, teatrdan, yashirin tashkilotlardan — foydalanib, o'z g'oyalarini keng ommaga yetkazishga harakat qildilar.

Ularning eng muhim siyosiy yutug'i — milliy ong va islohotchilik ruhining shakllanishiga munosib hissa qo'shganliklari bo'ldi. Garchi jadidlarning aksariyati Sovet davrida qatag'on qurboni bo'lgan bo'lsa-da, ularning merosini qayta baholash

O'zbekiston mustaqilligidan keyin alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda Buxoro jadidlari xalq qahramonlari va millat fidoiyilari sifatida e'zozlanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Бехбудий М. (1913). Танланган asarlar. Самарқанд.
2. Фитрат А. (1909). Мунозара. Истанбул.
3. Фитрат А. (1911). Байёнот саёҳи ҳинд. Истанбул.
4. Хо'jayев F. (1926). К истории революции в Бухаре. Тошкент.
5. Зиёев Ҳ. (2001). Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Тошкент: Шарқ.
6. Бекжонов А. (2000). Jadidchilik: tarix va bugun. Тошкент: Маориф.
7. Khalid, A. (1998). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press.
8. Carrère d'Encausse, H. (1967). Réforme et révolution chez les musulmans de l'Empire russe. Paris: Colin.
9. Baldauf, I. (1993). Schriftreform und Schriftwechsel bei den muslimischen Russland- und Sowjettürken. Budapest.
10. Ro'i, Y. (2000). Islam in the Soviet Union: From the Second World War to Gorbachev. London: Hurst.